

## TALONCHILIK JINOYATI IJTIMOY XAVFLILIGINING AYRIM JIHLTLARI

*Ne'matov Azizbek G'olibjon o'g'li\**  
*Usmonov Abrorjon Murodiljon o'g'li\**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jinoyat huquqi nazariyasidagi qilmishning ijtimoiy xavflilik kategoriyasi, xususan, talonchilik yo'li bilan talon-toroj qilishning ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyati, yetakchi olimlarning bu boradagi fikrlari o'rganilib, tahlil qilingan hamda muallifning talonchilikning ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatini belgilashga doir fikrlari bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Talonchilik, ochiqdan-ochiq, talon-toroj, ijtimoiy xavflilik darajasi, ijtimoiy xavflilik xususiyati, zo'rlik.

## НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ СОЦИАЛЬНОЙ ОПАСНОСТИ ПРЕСТУПЛЕНИЯ ГРАБЕЖА

**Аннотация:** В статье исследуется и анализируется категория общественной опасности деяния в теории уголовного права, в частности, степень и характер общественной опасности хищения путем грабежа, изучены и проанализированы взгляды ведущих ученых в этой сфере, а также изложены мнения автора по вопросам определения степени и характера общественной опасности грабежа.

**Ключевые слова:** Грабеж, открытое хищение, степень общественной опасности, характер общественной опасности, насилие.

## SOME ASPECTS OF THE SOCIAL DANGER OF THE CRIME OF ROBBERY

**Annotation:** The article deals with the category of social danger of the act in the theory of criminal law as well as the significance and degree of social danger of embezzlement by plundering. The author of the article studied and analyzed the opinions of leading scientists on this issue and the authors opinions are presented on determining significance and degree of social danger of embezzlement by plundering.

**Key words:** Plundering, frankly, embezzlement, degree of social danger, significance of social danger, violence.

**Kirish:** Yurtimizda demokratik bozor munosabatlarini joriy etish, mulkdorlar huquq hamda manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga

---

\*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o'qituvchisi. [azizbek\\_nematov\\_696@mail.ru](mailto:azizbek_nematov_696@mail.ru)

\*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti. [info@akadmvd.uz](mailto:info@akadmvd.uz).

oshirib kelinmoqda. Ayni damda xususiy mulk kafolatlari kuchaytirilishi, aholi farovonligi yuksalishi natijasida fuqarolarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligi ham yanada yuksaldi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1948-yil 10- dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 17-moddasida har bir inson yakka holda, shuningdek, boshqalar bilan birgalikda mulkka egalik qilish huquqiga egaligi, hech kim zo‘ravonlik bilan o‘z mulkidan mahrum etilishi mumkin emasligi belgilangan[1]. O‘zbekiston Konstitutsiyasining tegishli moddasida bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil qilishi, barcha mulk shakllari, xususan, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidaligi, mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkinligi o‘z aksini topgan[2].

Ushbu konstitutsiyaviy prinsipdan kelib chiqqan holda o‘zgalar mulkiga nisbatan jinoiy tajovuzlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi maxsus qismining uchinchi bo‘lim X bobida (o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish) iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan jinoiy-huquqiy normalar majmui sifatida tartibga solingan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek: “Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun biz hayotimizning barcha jabhalarida konstitutsiyaviy nazoratni kuchaytirishimiz zarur. Bu esa pirovard natijada inson huquq va erkinliklarini, uning sha’ni, qadr-qimmati, mol-mulkining daxlsizligini saqlash, fuqarolarning mehnat qilish, ta’lim olish, tibbiy yordamdan foydalanish kabi eng asosiy huquqlarini to‘la ta‘minlash imkonini beradi” [3].

Bozor munosabatlari sharoitida mulkning huquqiy himoya qilinishi ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi shaxsning uzluksiz manfaatlari, ya’ni hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni, qadr-qimmati va erkinliklari bilan bir qatorda mulkiy huquqlari ham ustuvor o‘rin egallashidan kelib chiqadi. Chunki ijtimoiy hayotning biron-bir sohasi yoki tarmog‘ini shaxsning mulkiy huquqlarisiz tasavvur qilish mushkul. Shuning uchun ijtimoiy manfaatlar tizimidagi mulkiy huquqlarga tajovuz qilishni keng ma’noda bevosita shaxsga tajovuz qilish sifatida baholash mumkin. Binobarin, mulkdorning mulkini jinoiy tajovuzlardan samarali muhofaza qilishni ta‘minlash jinoyat huquqi va sud-tergov amaliyoti uchun dolzarb hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 166-moddasi o‘zgalar mulkini talonchilik yo‘li bilan talon-toroj qilish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi.

XX asrning boshlaridayoq mashhur kriminolog olim Ch.Bekkaria kriminallashtirilgan qilmishning ijtimoiy xavfliligini jinoiy-huquqiy taqiq bilan belgilash lozimligini isbotlab bergandi. [226-B. 4].

Jinoiy-huquqiy ma’noda qilmishni kriminallashtirish to’g’risidagi masala xususida fikr bildirgan aksariyat olimlar har qanday jinoyatning ajralmas ijtimoiy belgisi sifatida uning ijtimoiy xavfliligini ko’rsatadilar [72-76-b.5]. Shu bois, talonchilik yo’li bilan talon-toroj qilish hodisasini kriminallashtirishning asosiy omillaridan biri uning ijtimoiy xavfliligi hisoblanadi. Biroq ta’kidlash lozimki, jinoyat huquqi nazariyasida ijtimoiy xavflilik qilmishning zaruriy belgisi hisoblanishi bilan birga, u qilmishni kriminallashtirish uchun yagona va yetarli belgi emas.

Ijtimoiy xavflilik kategoriyasi jinoyat huquqi nazariyasida bir necha o’n yillar davomida bahstlab va dolzarb muammolardan biri bo’lib qolmoqda. Chunki ijtimoiy xavflilik kategoriyasini aniqlashda hali-hanuz huquqshunos olimlar o’rtasida yagona fikr mavjud emas.

Yuridik adabiyotlarda olimlar ijtimoiy xavflilik tuzilishini turlicha aniqlashadi. Ko’pchilik olimlarning ta’kidlashicha, ijtimoiy xavflilik tajovuzni tavsiflovchi barcha belgilarning yig’indisidir [6].

O.G’.Zokirova va M.Usmonaliev jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi uning miqdor ko’rsatkichi hisoblanib, yetkazilgan zararining darajasi, kelib chiqqan oqibatning og’irligi, jinoiy harakatning qay darajada amalga oshirilgani (tayyorgarlik ko’rish, suiqasd qilish yoki oxiriga yetkazilgani), bir necha kishi tomonidan birgalashib sodir etilgani, jinoyatni sodir qilish usuli, jinoyat sodir etishda qurol ishlatilgani, aybning xususiyatlari kabi omillar hisobga olinishi mumkinligini ta’kidlaydi [72-B. 7].

XX asrning 60-70 yillarida tadqiqot olib borgan P.S.Dagel, V.N.Kudryavtsev, K.Lyutov, P.P.Osipov kabi olimlar fikricha, jinoyatning ijtimoiy xavfliligi, so’zsiz, qilmishning obyektiv mazmunidan kelib chiqadi. Bunday fikrni qo’llab-quvvatlagan A.S.Yakubovning ta’kidlashicha, “ijtimoiy xavflilikning obyektiv xususiyati jinoyat sodir etish natijasida yetkazilgan zararining obyektiv xususiyati bilan shartlanadi” [88- B. 8].

Huquqshunos olima Q.R.Abdurasulovanning ta’kidlashicha, “jinoyatning ijtimoiy xavfliligi qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning ijtimoiy xavfliligi, ushbu qilmish natijasida kelib chiqqan oqibatning ijtimoiy xavfliligi va aybdor shaxsning ijtimoiy xavfliligidan iboratdir” [10-B. 9].

Huquqshunos olim M.X.Rustamboevning fikricha, jinoyatning ijtimoiy xavfliligi uning keng tarqalganligi bilan belgilanadi [321-B. 10].

Ayrim olimlar shaxsning ijtimoiy xavfliligini qilmishning ijtimoiy xavflilik tizimiga kiritishga qarshilik bildiradi. Xususan, M.I.Kovalyovning fikricha, “biz shaxsning ijtimoiy xavfliligi va qilmishning ijtimoiy xavfliligini ko’rib chiqishda ularni bir-biridan ajratgan holda o’rganishimiz kerak. Chunki jinoyatchi shaxsining ijtimoiy xavfliligi qilmish sodir etilishidan oldinroq hamda bir qator hollarda bevosita jinoyat sodir etish vaqtida shakllanadi” [24-B. 11]. Biroq M. Abdusalomov va Yu.Karakterov nazarida, qilmishning ijtimoiy xavflilik tizimidan jinoyatchining

shaxsini chiqarib tashlash va ajratish mumkin emas [15-B. 12]. Ushbu fikrdan kelib chiqilsa, sud tomondan shaxsning xavfli retdivist yoki o‘ta xavfli retdivist deb topilishi uning ijtimoiy xavfliligi mustaqil ahamiyatga ega ekanini bildiradi. Ammo ta’kidlash lozimki, shaxs ijtimoiy xavfliligining o‘zi (xavfli retdivist yoki o‘ta xavfli retdivist holatlaridan tashqari) yoki unda qandaydir jinoiy qilmishni sodir etish istagining shakllanishi hech qanday jinoiy-huquqiy oqibatni keltirib chiqarmaydi. Shuning uchun ijtimoiy xavfli qilmishning sodir etilishi, ya’ni obyektiv ijtimoiy xavflilik amaldagi jinoyat qonunchiligi bo‘yicha jinoiy javobgarlikning asosi bo‘lib hisoblanadi [20-B. 13].

Boshqa bir guruh olimlar ijtimoiy xavflilikka jinoyat tarkibining obyektiv yoki subyektiv belgilaridan muayyan bir qismini kiritishadi. Masalan, Yu.Truntsevskiy qonun bilan qo‘riqlanadigan ne’mat – ijtimoiy munosabatlar, tajovuz va oqibat ijtimoiy xavflilikni tashkil qilishi- ni ta’kidlaydi [72-B. 14]. T.V.Tsereteli esa harakatning maqsadi, obyektning ijtimoiy ahamiyatligi, zararli oqibatlarning kelib chiqish darajasini ijtimoiy xavflilikni tashkil etuvchi belgilar qatoriga kiritadi [23-B. 15].

Ayrim olimlar ijtimoiy xavflilikning tuzilish belgilarini ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatiga ta’sir etuvchi, biroq uning tuzilishini tashkil etmaydigan holatlardan farqlash lozimligini ta’kidlaydilar. Ular qilmishning ijtimoiy xavfliligiga ta’sir etuvchi holatlarga motiv va maqsadni kiritishadi [16].

Shuningdek, Oliy sud Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati tajovuz obyekti (inson hayoti va sog‘lig‘i, mulk, jamoat xavfsizligi va h.k.), ayb shakli, jinoiy qilmishning qonunda qaysi toifaga (JK 15-moddasi) kiritilgani bilan belgilanadi.

Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi esa qilmish sodir etilishi holatlari (jinoiy niyatning amalga oshirilgani darajasi va bosqichlari jinoyatni sodir etish usuli, zarar miqdori yoki kelib chiqqan oqibatlar og‘irligi, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatda sudlanuvchining roli) bilan belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarning tahlili shuni ko‘rsatyaptiki, ayrim mualliflar ijtimoiy xavflilik tuzilishidagi asosiy element deb faqat obyektiv belgilarni, ikkinchi guruh olimlar esa subyektiv belgilarni hisoblashadi. Uchinchi toifadagilar esa qilmishning obyektiv va subyektiv belgilarining muayyan bir qismi yoki zaruriy bo‘lgan barcha qismlarining yig‘indisi tashkil etishini ta’kidlashadi. Bizningcha, har qanday qilmish ijtimoiy xavfliligining obyektiv va subyektiv belgilari o‘z qonuniyati bo‘yicha belgilanishi lozim [17]. Qilmishning jamiyat uchun xavfliligini bevosita oldindan aniqlab beruvchi tuzulmaviy elementlar zararining miqdori va oqibatini hosil qiluvchi holat, qilmish va usul (qilmishning jadalligi), qilmishdan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabat va predmet hisoblanadi. Obyektiv belgilar orqali namoyon bo‘ladigan ijtimoiy xavflilikka bilvosita ta’sir etuvchi belgilar qatoriga ayb,

maqsad, motiv, jinoyat tarkibida bevosita nazarda tutilishi mumkin bo‘lgan subyektning ayrim xususiyatlarini kiritish mumkin.

Demak, har qanday jinoyat kabi talonchilik yo‘li bilan talon-toroj qilish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilishda namoyon bo‘ladi. Talonchilik natijasida o‘zgarar mulkiga tajovuz qilinadi. “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunda mulkdor o‘ziga qarashli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqini boshqa shaxslarga berishga faqat o‘zi haqli ekani, mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum bo‘lishi mumkinligi belgilangan [18]. Ushbu qoidadan o‘zgarar mulki qay darajada ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga egaligidan dalolat beradi.

Yuridik adabiyotlarda talonchilikning ijtimoiy xavfliligiga oid bir qancha fikrlar bildirilgan. Jumladan, M.R.Rustambaevning fikricha, talonchilikning ijtimoiy xavfliligi shundan iboratki, bunda mulkka tajovuz ochiq va jinoyatchining o‘ta surbetligi, shu bilan birga, o‘rnatilgan tartibni, huquqiy va axloqiy qoidalarni va jamiyat qadriyatlarini mensimaslik bilan amalga oshiriladi [257-B. 19].

P. Bakunov, M. Usmonaliyev fikricha, talonchilik jinoyati mulk egasining yoki uchinchi boshqa har qanday shaxsning ko‘zi oldida sodir qilingani uchun ham ijtimoiy xavflilik darajasi ancha yuqori bo‘lib, shunday jinoyatni sodir qilgan kishi shaxsining ancha chuqur tubanlashganini hamda jabrlanuvchining yoki uchinchi bir shaxsning ko‘zi oldida ochiqdan-ochiq o‘zganing mulkini egallab olishga jur‘at qilingani subyekt shaxsining ancha chuqur buzilganini ko‘rsatadi [17-B. 20].

Huquqshunos olim R.Kabulov talonchilikning ijtimoiy xavfliligi qilmishning ochiqdan-ochiq sodir etilish usulida namoyon bo‘lishini ta’kidlagan. Bunda talon-toroj qilingan mulkning miqdoridan qat’iy nazar, talon-torojning boshqa shakllari (o‘g‘rilik, o‘zlashtirish, rastrata, firibgarlik) dan farqli o‘laroq, aybdorning harakatlari MJTKning 61-moddasi bilan emas, balki JKning 166-moddasi bilan malakalanadi.

Tahlillardan ko‘rishimiz mumkinki, ba’zi olimlar talonchilikning ijtimoiy xavfliligi borasida uning ochiqdan-ochiq sodir etilishiga urg‘u berishgan bo‘lsa, ba’zilari mazkur jinoyatning ijtimoiy xavfliligini talon-torojning boshqa shakllari bilan taqqoslab, talonchilik uchun ma’muriy jazo belgilanmagani bilan izohlashgan.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, talonchilikning ijtimoiy xavfliligi uning ochiqdan-ochiq sodir etilishida, ya’ni talonchi jabrlanuvchi, mulkka egalik qilayotgan yoki uni qo‘riqlayotgan shaxslarning erkiga xilof ravishda, talon-torojni anglab turgan boshqa shaxslarning fikrini nazar-pisand qilmasdan, o‘zining qo‘polligini namoyon etib, aksariyat hollarda qarshilik ko‘rsatishga shayligida ko‘rinadi. Mulkn oshkora talon-toroj qilayotgan shaxs jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslarga, bordiyu ular tomonidan jinoyat sodir etilishiga to‘sqinlik qilinsa, ularga nisbatan jismoniy kuch

ishlatilishi mumkinligini namoyish etadi. Ko‘rinadiki, talonchilikda aybdorning harakatlari oshkora sodir etilishi va o‘zida zo‘rluk ishlatishning real tahdidi mavjudligi bilan talon-torojning boshqa shakllariga (bosqinchilikdan tashqari) nisbatan ijtimoiy xavfi yuqoridir. Talonchilik sodir etayotgan shaxs jabrlanuvchi va atrofdagi shaxslarga nisbatan surbetlarcha munosabati, shuningdek, qo‘pollik va jamoat tartibi va qonunlarini mensimasligi bilan ajralib turadi. Talonchi jinoyat sodir etishdan bosh tortmaydi, jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslarga nisbatan zo‘rluk ishlatish vaziyatiga tushishi mumkinligini anglab, uning harakatlari g‘ayriqonuniy ekanini anglagan shaxslar jinoyatni fosh etishi yoki jinoyat ishida guvoh sifatida qatnashishi mumkinligini bilib, o‘zining oshkora harakatlarini davom ettiradi. O‘zgarar mulkini oshkora talon-toroj qilish subyektning ijtimoiy xavfliligini oshirib, talonchilik yo‘li bilan talon-toroj qilingan mulkning miqdoridan qat’iy nazar, qonun chiqaruvchi qilmishni ma‘muriy huquqbuzarlik sifatida baholashni inkor etadi va jinoyat deb malakalaydi.

Talonchilikning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish uning ijtimoiy xavfliligi jabrlanuvchi yoki jinoyat sodir etilishiga qarshilik qilishi mumkin bo‘lgan boshqa shaxslarning mavjudligida sodir etilishi, mulkni egallash bilan bog‘liq har qanday katta xavfni mensimaslik, jinoyatchi shaxsning xavfliligi yuqoriligi kabi subyektiv omillar bilan belgilanadi, deb xulosa qilishga imkon beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. <http://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi <https://www.lex.uz/acts/20596>.
3. Mirziyoev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. <https://president.uz/uz/lists/view/3119>.
4. Bekkaria Ch. O. Prestupleniyax i nakazaniyax / Per. s ital. – M., 1995. – S. 226.
5. Gontar’ I. Kategoriya «Общественная опасность» v ugovnom pravonotologicheskiy aspekt // Ugolovnoe pravo. – M., 2007. – № 1. – S. 16–19; Plosova V. I. Nenasil’stvennyye prestupleniya protiv sobstvennosti: kriminologicheskaya i pravovaya obosnovannost’. – SPb., 2003. – S. 22; Truntsevskiy Yu. Ekonomicheskij pravoporyadok kak ob’ekt posyagatel’stva i material’nyy priznak prestupleniya // Ugolovnoe pravo. – M., 2007. – № 2. – S. 72–76.
6. Abdusalomov M., Karaketov Yu. Otvetstvennost’ za vyimogatel’stvo. – T., 1997. – S. 15–16; Gulyamov Z. X. Prestupleniya protiv pravosudiya. – T., 1996. – S. 8–9; Zaripov Z. S., Kabulov R. Kvalifikatsiya kraj, grabejey, razboev, sovershyonnyx putyom proniknoveniya v pomeshchenie ili inoe xranilishche. – T., 1991. – S. 4; Tobolkin P. S. Sotsial’naya obuslovlennost’ ugolovno-pravovykh norm, – Sverdlovsk, 1983. –

S. 62–79; O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi: ilmiy amaliy sharhlar. – T., 1997. – 26-b.

7. Usmonaliev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. – T., 2005. – 72-b.

8. Yakubov A. S. Teoreticheskie problemy formirovaniya pravovoy osnovy ucheniya o prestuplenii. – T., 1996. – S. 278.

9. Abdurasulova K. R. Ugolovnaya otvetstvennost’ za moshennichestvo: avtoref. dis... kand. yurid. nauk. – T., 1994. – S. 24.

10. Rustamboev M.X. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. - Toshkent, 2006. – 321-b.

11. Kovalyov M.I. Ponyatie prestupleniya v sovetskom ugovnom prave. – Sverdlovsk 1987. – S. 175

12. Abdusalomov M., Karaketov Yu. Otvetstvennost’ za vyimogatel’stvo. – T., 1997. – S. 395.

13. Gulyamov Z. X. Prestupleniya protiv pravosudiya. – T., 1996. – S. 128.

14. Truntsevskiy Yu. Ekonomicheskiy pravoporyadok kak ob’ekt posyagatel’stva i material’nyy priznak prestupleniya. // Ugolovnoe pravo. – M., 2007. – № 2. – S. 72.

15. Plokhova V. I. Nenasil’stvennyye prestupleniya protiv sobstvennosti: kriminologicheskaya i pravo- vaya obosnovannost’. – SPb., 2003. – S. 251.

16. Karlov V. V. Kriteriy otbora zakonodatelem kvalifitsirovannykh sostavov prestupleniy: avtoref. dis...kand. yur. nauk. – Sverdlovsk, 1990. – S. 12–13; Lesnievski-Kostareva T. A. Differentsiatsiya ugo- lovnoy otvetstvennosti: Teoriya i praktika. – M., 1998. – S. 23; Martsev A. I. Obshchestvennaya vrednost’ i obshchestvennaya opasnost’ prestupleniya // Pravovedenie. – M., 2001. – № 4. – S. 148–155.

17. Ньматов, Азизбек. "ЖИНОЯТ САБАБЛАРИ ВА УНИ СОДИР ЭТИЛШИГА ИМКОН БЕРГАН ШАРТ-ШАРОИТЛАР ТАҲЛИЛИ." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 1.3 (2022): 7-10.

18. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi qonuni. <https://www.lex.uz/acts/111466>

19. Rustamboev M.X. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. – Toshkent, 2006. – 960-b.

20. M.Usmonaliev, P.Bakunov. Talonchilik uchun javobgarlikni liberallashtirish muammolari. O‘quv qo‘llanma.–Toshkent, 2005 – 52-b.